DAVLAT XARIDLARIDA MAHALLIYLASHTIRISH SIYOSATINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR

Asomova Dildora

Annotatsiya. *Mazkur maqolada davlat xaridlaridan mahalliylashtirish siyosatini amalga oshirish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishning iqtisodiy instrumenti sifatida foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Xorijiy tajriba asosida davlat xaridlarini sanoat siyosati bilan uyg‘unlashtirish, kichik va o‘rta biznesning xaridlarga kirishini yengillashtirish, mahsulotning hayotiy sikli qiymatini hisobga olish hamda strategik xaridlarni rivojlantirishning asosiy yondashuvlari o‘rganilgan. O‘zbekiston sharoitida mahalliylashtirish siyosatining samaradorligini oshirish uchun mahalliy qo‘shilgan qiymat, texnologik murakkablik, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va xaridlarning hayotiy sikl xarajatlarini hisobga oluvchi kompleks baholash mexanizmini joriy etish taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat xaridlari, mahalliylashtirish, mahalliy ishlab chiqarish, sanoat siyosati, davlat buyurtmasi, iqtisodiy samaradorlik, mahalliy qo‘shilgan qiymat, strategik xaridlar, raqobat, davlat xaridlari siyosati.*

Аннотация: *В статье исследуются вопросы использования государственных закупок в качестве экономического инструмента реализации политики локализации и развития внутреннего производства. На основе зарубежного опыта рассмотрены подходы к интеграции государственных закупок с промышленной политикой, расширению доступа малых и средних предприятий к рынку государственных закупок, применению стратегических закупок и учёту стоимости жизненного цикла продукции. Для условий Узбекистана предложен комплексный механизм оценки эффективности локализации с учётом местной добавленной стоимости, технологической сложности, производственной кооперации и совокупных затрат жизненного цикла закупаемой продукции.*

Ключевые слова: *государственные закупки, локализация, отечественное производство, промышленная политика, государственный*

заказ, экономическая эффективность, местная добавленная стоимость, стратегические закупки, конкуренция.

Abstract: *This article examines the use of public procurement as an economic instrument for implementing localization policy and developing domestic production. Based on international experience, the article examines approaches to integrating public procurement with industrial policy, improving SME access to public procurement markets, developing strategic procurement and applying life-cycle costing. For Uzbekistan, a comprehensive framework is proposed for assessing the effectiveness of localization based on domestic value added, technological complexity, industrial cooperation and life-cycle costs of procured products.*

Keywords: *public procurement, localization, domestic production, industrial policy, public contracting, economic efficiency, domestic value added, strategic procurement, competition.*

KIRISH

Bugungi kunda davlat xaridlari davlat ehtiyojlarini tovar, ish va xizmatlar bilan ta’minlashning an’anaviy funksiyasidan tashqari, iqtisodiy siyosatning strategik instrumenti sifatida ham shakllanib bormoqda. Davlat xaridlarining katta iqtisodiy hajmi davlat buyurtmachilarining talabini ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotda mahalliy qo‘shilgan qiymatni oshirishga yo‘naltirish imkonini beradi. OECD davlat xaridlarini innovatsiya, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishga xizmat qiluvchi strategik vosita sifatida baholaydi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 865-son qarori bilan tasdiqlangan 2025–2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasida davlat xaridlarini raqamlashtirish, barqaror xaridlarni rivojlantirish, raqobat muhitini kengaytirish va xaridlar samaradorligini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Davlat xaridlari samaradorligi tushunchasi shunchaki xarajatlarni tejash choralaridan kengroq mazmunga ega bo‘lib, endilikda shaffoflik, hisobdorlik, sarflangan mablag‘ evaziga olingan qiymat (value for money) va milliy rivojlanish maqsadlari bilan strategik uyg‘unlikni ham qamrab oladi (Thai, 2016).

Buyuk Britaniyalik olim Sue Arrowsmith 2010-yilda chop etilgan “The Law of Public and Utilities Procurement” asarida u davlat xaridlarida oshkoralik,

raqobat va izchil huquqiy bazaeng asosiy tamoyillar ekanini ta’kidlaydi. 2014-yilda Yevropa Ittifoqining yangi xarid direktivalarini tahlil qilib, davlat xaridlari samaradorligini oshirish uchun huquqiy moslik va standartlashtirishmuhimligini ko‘rsatadi(Sue Arrowsmith, 2010, 2014).

"Buyurtmachi-ijrochi" (principal-agent) modeli va tranzaksiya xarajatlari iqtisodiyoti kabi an’anaviy xarid nazariyalari xarid natijalarini shakllantirishda axborot assimmetriyasi, institutsional nazorat va rag‘batlantirish mexanizmlarining o‘rniga alohida urg‘u beradi (Erridge & McIlroy, 2002; Williamson, 1985).

Zamonaviy sharoitda xarid jarayoni davlat boshqaruvidagi strategik funksiya sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. Strategik xarid nazariyasi siyosat izchilligini va davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida bozor mexanizmlari hamda manfaatdor tomonlarning ishtirokini o‘zida birlashtiradi (Schapper, Malta & Gilbert, 2006).

Armanistonda Jahon banki (2022), BMTTD (2023) va RA Moliya vazirligi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar elektron xaridlar va qonunchilik yangilanishlarida sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatdi. Biroq, ushbu islohotlarning amalda samaradorligini baholaydigan akademik adabiyotlar cheklangan. Manfaatdor tomonlarning fikrlarini tushunish, ijro etishning izchilligi va institutsional muvofiqlashtirishda kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Avagyan (2020) va Melkonyan (2021) kabi olimlar raqamlashtirish, tartibga solishning aniqligi va institutsional hamkorlikni muvozanatlashtiradigan mahalliylashtirilgan tizim zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning ishi islohotlar natijalarini baholash va moslashuvchan yechimlarni taklif qilish uchun ko'proq empirik tahlilni talab qiladi. Ushbu nazariyalar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda xarid sohasidagi islohotlarni baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik tahlil, institutsional yondashuv hamda ekspert baholash elementlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, davlat organlarining rasmiy ma’lumotlari, OECD va Yevropa Komissiyasining davlat xaridlari bo‘yicha tadqiqotlari hamda xorijiy davlatlarning strategik xarid amaliyotiga oid ochiq manbalar tashkil etdi.

TAHLIL VA MUHOKAMALAR NATIJALARI:

Davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda zamonaviy yondashuvlar faqat eng past narx mezonidan foydalanishdan ko‘p mezonli baholash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tib bormoqda. Gálvez-Rodríguez va hammualliflar (2024) tomonidan amalga oshirilgan bibliometrik tadqiqotda 2006-yildan 2024-yil mayigacha davlat xaridlarining samaradorligi va tenderlarni baholash mezonlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 79 ta tadqiqot eng past narx (Lowest Price — LP) yondashuviga, 125 ta tadqiqot esa ko‘p mezonli baholash (Multi-Criteria — MC) yondashuviga mansub bo‘lgan. Mualliflar davlat xaridlarida samaradorlikni baholash amaliyoti faqat narx ko‘rsatkichidan foydalanishdan narx bilan bir qatorda sifat, texnik xususiyatlar, innovatsionlik, ekologik va ijtimoiy mezonlarni hisobga olishga yo‘nalayotganini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuv mahalliylashtirish siyosatining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki davlat xaridlarida mahalliy mahsulotni tanlashni faqat uning narxi bilan baholash mahalliy ishlab chiqarishning iqtisodiyotga qo‘shayotgan qo‘shimcha hissasini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shu sababli mahalliy mahsulotlarni baholashda narx bilan bir qatorda mahalliy qo‘shilgan qiymat, mahalliy xomashyo va butlovchi qismlardan foydalanish darajasi, mahsulot sifati, yetkazib berish xarajatlari, foydalanish davridagi xarajatlar, innovatsionlik, ekologik samaradorlik hamda bandlikka ta’sir kabi mezonlardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Davlat talabi → davlat xaridi → mahalliy ishlab chiqarish → sanoat kooperatsiyasi → mahalliy qo‘shilgan qiymat → bandlik va investitsiya → iqtisodiy multiplikativ samara.

Shu bilan birga, ushbu zanjirning samaradorligi davlat xaridlarida mahalliy mahsulotning mavjudligi bilangina belgilanmaydi. Mahalliy ishlab chiqarishning texnologik darajasi, mahsulot tannarxi, sifati, yetkazib berish barqarorligi va ishlab chiqarish zanjirlarining rivojlanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun mahalliylashtirish siyosatining iqtisodiy samaradorligi uchta darajada baholanishi mumkin:

mikro daraja — korxonaning ishlab chiqarish hajmi, tannarxi, foydasi va investitsion faolligi;

mezo daraja — tarmoqdagi kooperatsiya, mahalliy yetkazib beruvchilar soni va ishlab chiqarish zanjirlarining rivojlanishi;

makro daraja — mahalliy qo‘shilgan qiymat, import o‘rnini bosish, bandlik, soliq bazasi va iqtisodiy o‘sishga ta’siri.

Xorijiy tajriba davlat xaridlaridan foydalanishning yagona modeli mavjud emasligini ko‘rsatadi. Turli mamlakatlarda mahalliy biznesni qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rivojlantirish, ekologik maqsadlarga erishish va strategik tarmoqlarni rivojlantirish uchun turli mexanizmlar qo‘llaniladi.

OECD ma’lumotlariga ko‘ra, davlat xaridlarining strategik funksiyasi tobora kengayib, xaridlar orqali innovatsiya, kichik va o‘rta biznes, barqaror rivojlanish va iqtisodiy siyosatning boshqa maqsadlarini qo‘llab-quvvatlashga e’tibor kuchaymoqda. 2024-yilgi OECD ma’lumotlarida respondentlarning 83 foizi kichik va o‘rta biznesning davlat xaridlariga kirishini yaxshilash uchun kamida bitta maxsus mexanizm joriy qilganini bildirgan. Eng ko‘p qo‘llanilgan vositalar qatorida tenderlarni kichik lotlarga ajratish, biznes salohiyatini oshirish dasturlari va dinamik xarid tizimlari qayd etilgan.

Mazkur tajribaning muhim jihati shundaki, mahalliy ishlab chiqaruvchini qo‘llab-quvvatlash faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri narx preferensiyasiga asoslanmaydi. Aksincha, xarid bozoriga kirishdagi institutsional va moliyaviy to‘siqlarni kamaytirish ham muhim instrument sifatida qaraladi. OECD tadqiqotlari kichik va o‘rta biznes uchun tenderlarning haddan tashqari katta hajmi, murakkab hujjatlar va nomutanosib moliyaviy talablar bozorga kirishni cheklashi mumkinligini ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqi amaliyotida davlat xaridlarining samaradorligini oshirishning yana bir muhim yo‘nalishi — mahsulotning **hayotiy sikli qiymatini (Life-Cycle Costing — LCC)** hisobga olishdir. Bunda xarid narxidan tashqari, mahsulotdan foydalanish, energiya, texnik xizmat, ta’mirlash va utilizatsiya bilan bog‘liq xarajatlar ham baholanadi. Yevropa Komissiyasi LCC yondashuvi xarid qilinayotgan mahsulotning real iqtisodiy qiymatini aniqlashga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Bu yondashuv O‘zbekiston uchun ham muhim. Chunki ayrim hollarda mahalliy mahsulotning boshlang‘ich narxi import analogidan yuqoriroq bo‘lishi mumkin, biroq uning ekspluatatsiya xarajatlari, texnik xizmat ko‘rsatish qulayligi yoki ehtiyot qismlarning mavjudligi sababli umumiy xarajatlari pastroq bo‘lishi ehtimoli mavjud.

Janubiy Koreya tajribasida esa davlat xaridlari innovatsion mahsulotlarni bozorga olib kirish mexanizmi bilan uyg‘unlashtirilgan. Koreya Public Procurement Service 2019-yildan innovatsion mahsulotlarni aniqlash va davlat sektori tomonidan xarid qilish tizimini rivojlantirib kelmoqda. Bu yondashuv yangi mahsulotlarni davlat xaridi orqali dastlabki bozor bilan ta’minlashga qaratilgan.

Mazkur tajribalar asosida quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin: **samarali mahalliylashtirish siyosati mahalliy ishlab chiqaruvchiga shunchaki imtiyoz berish emas, balki unga bozor, talab, moliyalashtirish, innovatsiya va kooperatsiya imkoniyatlarini bir vaqtning o‘zida yaratishni nazarda tutadi.**

O‘zbekistonda davlat xaridlari tizimini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Strategiyada raqamlashtirish, barqaror xaridlar, shaffoflik va raqobatni rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan.

2026-yilda esa mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun davlat xaridlaridagi imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etilmoqda. Jumladan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokiga qarab 8–15 foiz oralig‘ida narx preferensiyasi mexanizmi belgilangan. Bundan tashqari, ayrim mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun vositachilik yig‘imlariga chegirmalar, qo‘shimcha zakalatdan ozod qilish va mahalliy auksion mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari nazarda tutilgan.

Davlat xaridlari bozorining iqtisodiy salohiyati ham yuqori. 2026-yilning birinchi yarmida davlat xaridlari hajmi 188,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, shundan 112,9 trln so‘mi raqobatli xaridlarga to‘g‘ri kelgan. Shu davrda xaridlar natijasida 7,8 trln so‘m mablag‘ iqtisod qilingan.

Ushbu ko‘rsatkichlar davlat xaridlari orqali shakllanadigan talabning mahalliy ishlab chiqarish uchun katta bozor imkoniyatlarini yuzaga keltirishini ko‘rsatadi. Biroq mahalliylashtirish siyosatining keyingi bosqichida asosiy e’tibor xarid hajmini oshirishdan ko‘ra, **xaridlar orqali yaratiladigan iqtisodiy natijaning sifatini oshirishga** qaratilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijasida O‘zbekiston sharoitida mahalliylashtirish siyosatini davlat xaridlari orqali yanada samarali amalga oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish mumkin.

1. Mahalliylashtirish samaradorligini kompleks indeks orqali baholash

Mahalliy mahsulot ulushini aniqlashning o‘zi siyosat natijadorligini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli **Davlat xaridlarida mahalliylashtirish samaradorligi indeksi**ni shakllantirish maqsadga muvofiq.

U quyidagi komponentlardan tarkib topishi mumkin:

Ko‘rsatkich	Mazmuni
Mahalliy qo‘shilgan qiymat	Mahsulot qiymatida mamlakat ichida yaratilgan qiymat ulushi
Mahalliy xomashyo ulushi	Ichki resurslardan foydalanish darajasi
Kooperatsiya koeffitsiyenti	Mahalliy yetkazib beruvchilar bilan aloqalar darajasi

Bandlik samarasi	Xarid natijasida yaratilgan yoki saqlab qolingan ish o‘rinlari
Investitsiya samarasi	Xarid bilan bog‘liq yangi ishlab chiqarish quvvatlari
Texnologik daraja	Mahsulotning texnologik murakkabligi va innovatsionligi
Xaridning hayotiy sikl qiymati	Xarid, foydalanish va utilizatsiya xarajatlarining yig‘indisi
Raqobat ko‘rsatkichi	Xaridda qatnashgan malakali ishtirokchilar soni

Bunday indeks mahalliylashtirish siyosatini “mahalliy mahsulot sotib olindi” darajasidan “davlat xaridi iqtisodiyotga qanday natija berdi?” darajasiga olib chiqadi.

2. Narx preferensiyasini natijadorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga beriladigan narx preferensiyasi ichki ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. Biroq preferensiyaning iqtisodiy samaradorligi muntazam monitoring qilinishi zarur.

Bunda preferensiyadan foydalangan korxona bo‘yicha keyingi davrda:

- mahalliy qo‘shilgan qiymat;
- ishlab chiqarish hajmi;
- yangi ish o‘rinlari;
- eksport;
- mahalliy yetkazib beruvchilar soni;
- texnologik yangilanish

kabi ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini baholash mumkin.

Shunday yondashuv preferensiyani doimiy imtiyoz emas, balki **natijaga yo‘naltirilgan vaqtinchalik iqtisodiy instrument** sifatida shakllantirishga yordam beradi.

3. Mahalliylashtirish va sanoat kooperatsiyasini yagona tizimga birlashtirish

Mahalliylashtirish samaradorligini oshirish uchun faqat yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchini emas, balki uning butun yetkazib beruvchilar zanjirini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Masalan, davlat xaridi bo‘yicha yirik shartnoma tuzgan korxona mahalliy xomashyo, butlovchi qismlar yoki xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lsa, xaridning multiplikativ ta’siri ortadi.

Shu sababli davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda **birinchi darajali yetkazib beruvchi bilan birga ikkinchi va uchinchi darajali mahalliy yetkazib beruvchilar**ning ishtirokini ham hisobga olish taklif etiladi.

4. Hayotiy sikl qiymatini davlat xaridlarida kengaytirish

Xaridni faqat eng past boshlang‘ich narx asosida baholash ayrim holatlarda davlat mablag‘laridan samarali foydalanishga olib kelmasligi mumkin. Shu sababli yirik va uzoq muddat foydalaniladigan mahsulotlarda hayotiy sikl qiymatini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Bunda:

LCC = Xarid narxi + yetkazib berish + o‘rnatish + ekspluatatsiya + texnik xizmat + ta’mirlash + utilizatsiya xarajatlari

ko‘rinishidagi yondashuvdan foydalanish mumkin.

Yevropa Komissiyasi ham hayotiy sikl qiymatini mahsulotning xarid narxidan tashqari foydalanish, texnik xizmat va utilizatsiya xarajatlarini hisobga oluvchi mexanizm sifatida qo‘llashni tavsiya qiladi.

5. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun davlat xaridlaridagi bozor ma’lumotlarini ochiqlash

Mahalliylashtirishning muhim shartlaridan biri — ishlab chiqaruvchining kelgusidagi talabni oldindan ko‘ra olishi.

Shu sababli elektron davlat xaridlari tizimida:

- kelgusi xaridlarning prognoz hajmi;
- mahsulot nomenklaturasi;
- hududlar bo‘yicha talab;
- davlat buyurtmachilari ehtiyoji;
- uzoq muddatli xarid rejalari

bo‘yicha ochiq ma’lumotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Bu ishlab chiqaruvchilarga bozor talabini oldindan baholash va ishlab chiqarish quvvatlariga investitsiya kiritish imkonini beradi.

6. Mahalliylashtirishni innovatsion xaridlar bilan bog‘lash

Mahalliylashtirishning uzoq muddatli maqsadi faqat importni almashtirish emas, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarning texnologik raqobatbardoshligini oshirish bo‘lishi kerak.

Shu sababli innovatsion mahsulotlarni davlat xaridlari orqali dastlabki bozor bilan ta’minlash mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Janubiy Koreya tajribasida innovatsion mahsulotlarni davlat sektori tomonidan xarid qilish mexanizmi 2019-yildan boshlab rivojlantirib kelinmoqda.

TAKLIF ETILAYOTGAN MODEL

Yuqoridagi tahlillar asosida O‘zbekiston uchun davlat xaridlarida mahalliylashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning quyidagi modelini taklif etish mumkin:

1-bosqich: davlat xaridlariga bo‘lgan talabni prognozlash;

↓

2-bosqich: talabni mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan solishtirish;

↓

3-bosqich: mahalliylashtirish va kooperatsiya salohiyatini aniqlash;

↓

4-bosqich: ishlab chiqaruvchilar uchun bozor va moliyaviy imkoniyatlarni shakllantirish;

↓

5-bosqich: davlat xaridida narx, sifat, mahalliy qo‘shilgan qiymat va hayotiy sikl qiymatini kompleks baholash;

↓

6-bosqich: shartnoma ijrosining iqtisodiy natijalarini monitoring qilish;

↓

7-bosqich: natijadorlik asosida mahalliylashtirish siyosati parametrlarini qayta ko‘rib chiqish.

Mazkur modelning asosiy farqi shundaki, mahalliylashtirish davlat xaridining yakuniy natijasi emas, balki **davlat talabi orqali ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish jarayoni** sifatida qaraladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat xaridlari mahalliylashtirish siyosatini amalga oshirishning muhim iqtisodiy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Biroq mahalliy ishlab chiqaruvchilarga preferensiyalar berishning o‘zi mahalliylashtirish siyosatining uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini kafolatlamaydi. Xorijiy tajriba davlat xaridlaridan strategik foydalanishda uchta muhim yo‘nalishning ahamiyatini ko‘rsatadi: birinchidan, kichik va o‘rta biznesning xarid bozoriga kirishidagi to‘siqlarni kamaytirish; ikkinchidan, davlat xaridlarini innovatsiya va sanoat siyosati bilan bog‘lash; uchinchidan, xarid samaradorligini faqat boshlang‘ich narx emas, balki mahsulotning hayotiy sikli qiymati va strategik natijalar orqali baholash.

O‘zbekistonda 2026-yildan mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan narx preferensiyalarining joriy etilishi davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Shu bilan birga,

ushbu mexanizmning iqtisodiy samaradorligini doimiy ravishda baholab borish zarur.

Maqolada taklif etilgan **Davlat xaridlarida mahalliylashtirish samaradorligi indeksi** mahalliy qo‘shilgan qiymat, mahalliy xomashyo, sanoat kooperatsiyasi, bandlik, investitsiya, texnologik daraja, hayotiy sikl qiymati va raqobat ko‘rsatkichlarini yagona tizimda baholash imkonini beradi.

Shuningdek, mahalliylashtirish siyosatini davlat xaridlaridagi narx preferensiyalaridan bosqichma-bosqich natijadorlikka yo‘naltirilgan mexanizmga aylantirish, davlat xaridlarining prognoz ma’lumotlarini ochiqlash, yirik xaridlarni mahalliy kooperatsiya imkoniyatlari bilan bog‘lash, hayotiy sikl qiymatini keng qo‘llash va innovatsion mahsulotlar uchun davlat xaridlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, davlat xaridlarida mahalliylashtirish siyosatining iqtisodiy samaradorligi mahalliy mahsulot xarid qilinganligi bilan emas, balki ushbu xarid natijasida mamlakat ichida qancha qo‘shilgan qiymat yaratilgani, qancha ishlab chiqarish va kooperatsiya aloqalari shakllangani, davlat mablag‘lari qanchalik samarali sarflangani hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning uzoq muddatli raqobatbardoshligi qanchalik oshgani bilan baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 865-son qarori. “2025–2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-fevraldagi PF-17-son Farmoni. “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

3. OECD. *SMEs in Public Procurement: Practices and Strategies for Shared Benefits*. OECD Publishing, Paris, 2018.

4. OECD. *Public procurement performance: A framework for measuring efficiency, compliance and strategic goals*. OECD Public Governance Policy Papers, No. 36, 2023.

5. OECD. *Implementing the OECD Recommendation on Public Procurement in OECD and Partner Countries*. OECD Publishing, 2025.

6. OECD. *Public Procurement, Trade and Industrial Policies*. OECD Publishing, 2026.

7. European Commission. *Life-cycle costing*. Green Public Procurement.

8. European Commission. *Green Public Procurement*. Directorate-General for Environment.

9. Public Procurement Service of the Republic of Korea. *About Innovative Procurement*.

10. Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi. 2026-yil birinchi yarim yillik faoliyati yakunlari bo‘yicha ma’lumotlar.